

BIOLOGIYA FANIDA DARSLIKNING TA'LIM-TARBIYA JARAYONIDAGI ROLI**Mamadaliyeva Barnoxon Ibragimovna****Toshkent oriental universiteti**<https://doi.org/10.5281/zenodo.14511864>

Annotatsiya. Ushbu maqolada biyologiya darsliklarida o'quvchilarning tabiiy bilimlarni o'zlashtirishi, tanqidiy fikrlashi va ekologik mas'uliyatini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega ekanligi. Biologiya fani tabiiy fanlar ichida insonning atrof-muhit bilan aloqasini o'rganishga yo'naltirilgan muhim ta'lim yo'nalishi haqida fikr bildirilgan.

Kalit so'zlar: ekologik, ko'nikma, jarayon, kognitiv, vosita, Interfaol metodlar, ta'lim.

Аннотация: В этой статье показано, как учебники по биологии играют важную роль в формировании у учащихся способности усваивать естественные знания, критически мыслить и нести экологическую ответственность. Высказывается мнение о том, что биологическая наука является важной образовательной областью в естественных науках, которая фокусируется на изучении взаимоотношений человека с окружающей средой.

Ключевые слова: экологический, навык, процесс, познавательный, моторный, интерактивные методы, образование.

Annotation: This article shows how biology textbooks play an important role in shaping students' ability to assimilate natural knowledge, think critically and bear environmental responsibility. It is suggested that biological science is an important educational field in the natural sciences, which focuses on the study of human relationships with the environment.

Keywords: environmental, skill, process, cognitive, motor, interactive methods, education.

Biologiya fanida darslikning ta'lim-tarbiya jarayonidagi roli haqida o'zbek va xorijiy olimlar bir qator ilmiy tadqiqotlar olib borgan. Ushbu fikrlar darslikning nafaqat bilim berish vositasi, balki shaxsni rivojlantirish, fikrlash qobiliyatini shakllantirish va tarbiyaviy jarayonlarni qo'llab-quvvatlashdagi ahamiyatini ochib beradi.

O'zbek olimi H. To'xtaboev va boshqa o'zbek pedagoglari ta'kidlashicha, darslik nafaqat ilmiy ma'lumotlarni berish, balki o'quvchilarning dunyoqarashini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Biologiya darsliklari orqali insonning tabiat bilan o'zaro aloqalari, ekologik mas'uliyati va sog'lom turmush tarzi bo'yicha tushunchalar beriladi. M. Yo'ldoshev biologiya darsliklarini o'quvchilarning kuzatuvchanlik va ilmiy tafakkurini rivojlantirish vositasi sifatida ko'radi. Uning fikricha, darsliklar tabiiy hodisalarni ilmiy asosda tushuntirib, o'quvchilarda mustaqil izlanish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Sh. Sattorov ta'kidicha, biologiya fanidagi darsliklar tarbiyaviy vazifani ham bajaradi. Ularning mazmuni orqali o'quvchilarda tabiatni sevish, tabiatga hurmat va uni asrash tuyg'ulari shakllantiriladi.

Xorijiy olimlari J. Bruner (AQSh) ta'limda darslikning didaktik ahamiyatiga e'tibor qaratib, biologiya darsliklarini o'quvchilarning bilim olish jarayonida asosiy vosita sifatida baholaydi. Uning fikricha, darsliklar tushunchalarni tizimli o'rganishga, tajribalarni tushunishga va tahlil qilishga yordam beradi. J. Piaget (Shveytsariya) biologiya darsliklari

orqali o'quvchilarning kognitiv rivojlanishini ta'minlash mumkinligini ta'kidlaydi. U darslikning maqsadi bolalarning turli biologik jarayonlarni o'zlashtirishini soddalashtirish va ularning ilmiy mantiqiy tafakkurini rivojlantirish deb biladi. D. Ausubel (AQSh) biologiya darsliklarining nazariy ma'lumotlar va amaliy ko'nikmalarni uyg'unlashtirishdagi o'rni haqida fikr bildirgan. U darsliklarni o'quvchilarning tayyorlanish darajasiga mos ravishda ishlab chiqish muhimligini ta'kidlagan. R. Gagne (AQSh) biologiya darsliklarining ta'lim jarayonidagi o'quv motivatsiyasini oshirishdagi ahamiyatini qayd etadi. Uning fikricha, yaxshi tuzilgan darsliklar o'quvchilarda qiziqish uyg'otadi va o'rganish samaradorligini oshiradi.

Biologiya darsliklari o'zbek va xorijiy olimlar tomonidan nafaqat o'quvchilarni ilmiy bilim bilan ta'minlash vositasi, balki ularni tarbiyalash, dunyoqarashini kengaytirish va ekologik ongni shakllantirishda muhim o'rin tutuvchi vosita sifatida e'tirof etilgan. Ularning mazmuni, uslubiy jihatlari va dizayni o'quvchilarning yosh xususiyatlariga mos holda ishlab chiqilishi kerak. Bu esa biologiya fanining o'quv jarayonida ham ilmiy, ham tarbiyaviy samaradorligini oshiradi.

Biologiya darsligi o'quvchilarning o'quv faoliyatini tashkil etuvchi asosiy vositalardan biridir. Uning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

1. **Axborot berish:** O'quvchilarga biologik jarayonlar, organizmlar, ularning funksiyalari va o'zaro bog'liqligi haqida aniq va tizimli bilim berish.
2. **Didaktik yordamchi vosita:** Matn, rasmlar, diagrammalar va jadvallar yordamida murakkab mavzularni osonlashtirish.
3. **Analitik ko'nikmalarni rivojlantirish:** Darslikdagi grafiklar, tajribalar, va masalalar orqali tanqidiy fikrlash va tahlil qilish qobiliyatlarini shakllantirish.
4. **Tarbiya vositasi:** O'quvchilarda ekologik ong, insoniyat va tabiat o'rtasidagi muvozanatni saqlash mas'uliyatini shakllantirish.

Biologiya darsligi o'zining strukturasi va mazmuni bilan boshqa fanlarning darsliklaridan farq qiladi. Unda nafaqat nazariy ma'lumotlar, balki laboratoriya ishlari, amaliy topshiriqlar va kuzatish natijalari ham keltiriladi. Ushbu xususiyatlar quyidagi imkoniyatlarni yaratadi:

- **Ko'rgazmalilik tamoyili:** Rasmlar, diagramma va fotosuratlar biologik jarayonlarni vizual tasavvur qilish imkonini beradi.
- **Integratsiya:** Darslikdagi ma'lumotlar kimyo, geografiya va ekologiya fanlari bilan bog'liq holda beriladi, bu esa o'quvchilarning bilimni kengaytiradi.
- **Mustaqil ta'lim:** Darslikdagi mustaqil topshiriqlar va tajribalar orqali o'quvchilar o'z bilimlarini mustahkamlaydi.

Darslikning ta'lim-tarbiya jarayonidagi o'rni haqida o'zbek va xorijiy olimlar fikrlari quyidagi fikrlarni bildirishgan.

J. Jalolov o'quvchilarning darslikni faqat axborot manbai sifatida emas, balki mustaqil tahlil va ijodiy izlanish vositasi sifatida foydalanishlari muhimligini ta'kidlaydi.

R. G'ofurov darslikdagi topshiriqlar orqali ekologik tarbiya va mas'uliyatni shakllantirish mumkinligini ko'rsatadi.


J. Bruner darslikni o'quvchining faol o'rganish jarayonini tashkil qiluvchi vosita deb hisoblaydi va unda o'quvchilarning analitik ko'nikmalarini rivojlantirishga e'tibor qaratish zarurligini aytadi.

D. Ausubel diagrammalar va grafiklardan foydalanishni yangi bilimlarni mavjud bilimlarga bog'lash jarayonini tezlashtiruvchi vosita sifatida ko'radi.

Darslikdan samarali foydalanish metodikasi

1. **Interfaol metodlar:** Munozara, savol-javob, va guruhli ishlash usullari orqali darslikdagi materiallarni o'zlashtirish samaradorligini oshirish.
2. **Amaliy mashg'ulotlar:** Darslikdagi laboratoriya ishlari va tajribalarni ijodiy yondashuv bilan bajarish.
3. **Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari:** Elektron darsliklar va raqamli vositalar yordamida darslikdan foydalanishni yangi darajaga ko'tarish.

Xulosa biologiya darsliklari ta'lim jarayonida nafaqat o'quvchilarning nazariy bilimlarini boyitadi, balki ularning hayotiy ko'nikmalarini, ekologik ongini va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. O'qituvchi va o'quvchi o'rtasida samarali hamkorlikda darslikdan foydalanish o'quv jarayonini yanada boyitadi va ta'lim-tarbiya samaradorligini oshiradi. Shu bois, darsliklarning mazmunini doimiy ravishda takomillashtirish va ulardan foydalanish metodikasini rivojlantirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.



References:

1. Jalolov J., Qodirov A. "Pedagogik texnologiyalar asosida biologiya o'qitish." Toshkent, 2020.
2. G'ofurov R. "Biologiya ta'limida ekologik tarbiya." Toshkent, 2018.

INNOVATIVE
ACADEMY